

# **NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR HUQUQLARI**



INSON HUQUQLARI BO'YICHA  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

**NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR  
HUQUQLARI**  
(O'QUV QO'LLANMA)

Toshkent – 2023

UO'K 343.211-056.24(075.8)

KBK 67.404ya73

N 71

**N71 Saidov A.X. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari (o'quv qo'llanma).** – Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – 40 bet.

ISBN 978-9943-7235-7-3

2006-yilda BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining qabul qilinishi nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashda xalqaro miqyosdagi muhim voqea bo'ldi. Ushbu asosiy hujjat nogironlarning asosiy huquqlari va erkinliklarini mustahkamlabgina qolmay, balki jamiyatning nogironlarga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqishga turtki berdi. Qo'llanmada ushbu Konvensiyaning mazmuni va asosiy qoidalari ochib berilgan bo'lib, O'zbekistonda nogironlar huquqlarini amalga oshirishning qonunchilik asoslari to'g'risidagi ma'lumotlar qamrab olingan.

O'quv qo'llanma talabalar, magistrantlar, aspirantlar, davlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish sohasiga ixtisoslashgan mutaxassislar uchun mo'ljallangan. Inson huquqlariga rioya qilish va uni himoya qilish sohasida kadrlar malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslarida ham foydalanish mumkin.

---

---

## Mundarija

|                                                                                                                                                         |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Kirish .....                                                                                                                                            | 4  |
| <b>Birinchi bo'lim.</b> Nogironlar huquqlari to'g'risidagi<br>konvensiya ratifikatsiyasi .....                                                          | 7  |
| <b>Ikkinchi bo'lim.</b> BMTning Nogironlar huquqlari<br>to'g'risidagi konvensiyasi – mazmun-mohiyati<br>va asosiy qoidalar .....                        | 18 |
| <b>Uchinchi bo'lim.</b> Nogironlar huquqlarini ta'minlash:<br>milliy va xalqaro yondashuvlardagi o'zaro mushtaraklik .....                              | 25 |
| <b>To'rtinchi bo'lim.</b> Nogironlar huquqlari bo'yicha<br>qo'mitaga ma'ruzalarni taqdim qilish:<br>mamlakatlar ma'ruzalari va muqobil ma'ruzalar ..... | 32 |

---

## KIRISH

O'zbekistonda inson huquqlari va manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga yo'naltirilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Davlatning asosiy maqsadi mamlakatdagi istiqomat qiladigan har bir inson millati, tili va e'tiqodidan qat'i nazar, erkin, tinch va xotirjam hayot kechirishi hamda bugungi hayotdan mamnun bo'lishidan iboratligi tan olingan. Inson qadr-qimmatini ulug'lash, uning huquqlari va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tasdiqlagan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan keng qamrovli islohotlar mantiqiy ketma-ketlikda va samaradorlik bilan amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi, o'z navbatida, yurtimizda inson qadrini ulug'lashga, inson manfaatlariga, shu jumladan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, kam ta'minlanganlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, yoshlar, xotin-qizlar va keksalarni ijtimoiy himoya qilish inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangani katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda 2021-yil 7-iyunda ratifikatsiya qilingan BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi qoidalarini izchil amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston ratifikatsiya qilgan mazkur hujjat nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishni taqiqlab, tenglikni ta'minlash uchun nogironlarning ehtiyojlarini oqilona hisobga olish zarurligini nazarda tutgan holda, nogironlarning hayotning barcha sohalarida to'liq ishtirokini ta'minlaydi. Konvensiya nogironlarning muammolariga jamiyat tomonidan ijobiy munosabatni rag'batlantirish va ularni chuqurroq tushunish bo'yicha majburiyatlarni belgilash bilan birga, nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan turli stereotiplar, noto'g'ri fikr-mulohazalar, zararli amaliyotlar va xulosalarga asoslangan odat va xulq-atvorlardan voz kechadi.

Konvensiya insonlarning turli-tumanligi va qadr-qimmati prinsiplarini o'zida mujassamlashtirgan. Uning asosiy g'oyasi nogironligi bo'lgan shaxslar barcha inson huquqlari va erkinliklaridan kamsitishsiz foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishidan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasiga muvofiq davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyalanganligi davlat tamaddunining asosiy mezonlaridan biri sanaladi. Asosiy Qonunning IX bobi fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini belgilaydi hamda kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasining nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – nogironligi bo'lgan shaxslarga Konstitutsiyada nazarda tutilgan shaxsiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarni amalga oshirishda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari va prinsiplari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro shartnomalarga muvofiq holda, boshqa fuqarolar bilan teng ravishda imkoniyatlarni ta'minlash hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasining 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlari (Konstitutsiya, 40 dan ortiq qonunlar va 160 dan ortiq qonunosti hujjatlari) nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash hamda himoya qilish masalalarini tartibga solmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolarining huquq va erkinliklari, tenglik va kamsitmaslik prinsiplari mustahkamlangan 18-moddasida shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar".

Konstitutsiyaning 39-moddasida "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega" deb belgilab qo'yilgan.

Pensiylar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlari miqdori rasman belgilab qo'yilgan, tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas.

Konstitutsiyaning 45-moddasida: "Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidir" deb belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalarini amalga oshirish natijasida birinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimini xalqaro norma va standartlarga muvofiqlashtirish, ikkinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish bo'yicha xalqaro tashkilotlarning maqsadli resurslarini jalb qilish imkonini kengaytirish mumkin bo'ladi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish sohasida zamonaviy usullar va xalqaro standartlarni joriy etish imkoni ortadi.

---

---

## **BIRINCHI BO‘LIM.**

### **NOGIRONLAR HUQUQLARI TO‘G‘RISIDAGI KONVENSIYA RATIFIKATSIYASI**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilgari surgan milliy, mintaqaviy va xalqaro tashabbuslar keng jamoatchiligimiz hamda jahon hamjamiyati tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bunday ijobiy munosabat, bir tomondan, O‘zbekistonning davlatimiz rahbari belgilab bergan milliy taraqqiyot yo‘lidan og‘ishmay, dadil odimlayotganini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan, mamlakatimizning xalqaro maydondagi o‘rni va nufuzi tobora mustahkamlanib borayotganiga yana bir yorqin dalildir.

#### **Milliy qonundan – xalqaro konvensiya sari**

2021-yilning 29-may kuni bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis Senatining majlisida Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan ishlab chiqilgan “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qilish haqidagi (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr)” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi muhokama etilib, tasdiqlangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 22-fevral kuni BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida bu haqda to‘xtalib o‘tgandi. Yurtboshimiz yuksak minbardan turib, **imkoniyati cheklangan shaxslarning o‘z**



**qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha Mintaqaviy kengash tuzish taklifini xalqaro hamjamiyat e'tiboriga havola etar ekan, O'zbekistonda alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilayotganini ta'kidlagani bejiz emas.**

### **Prezidentning qonunchilik tashabbusi: izchillik va samara**

O'zbekiston Respublikasi Hukumati BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini 2009 yil 27 fevralda imzolagan. O'shanda mamlakatimiz Konvensiyani kelgusida ratifikatsiya qilishga ishonch bildirgan. Ammo, afsuski, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aynan ratifikatsiya masalasi cho'zilib ketdi.

Shu ma'noda, keyingi yillarda bu boradagi amaliy ishlar shiddatli tus olgani diqqatga sazovor. O'zbekiston Respublikasining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilishiga oid masala davlat boshlig'ining quyidagi dasturiy hujjatlarida:

**birinchidan**, "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida (2017-yil 1-dekabrda qabul qilingan);

**ikkinchidan**, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag'ishlangan Tadbirlar dasturida (2018-yil 5-maydagi Farmon bilan tasdiqlangan);

**uchinchidan**, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasida (2020-yil 22-iyundagi Farmon bilan tasdiqlangan);

**to'rtinchidan**, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-fevralda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida nazarda tutilgan.

BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va BMT xalqaro shartnomaviy organlari – Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo'mitasining, Irqiy kamsitishni tugatish bo'yicha qo'mitasining yakuniy tavsiya va mulohazalarida O'zbekiston tomonidan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish va targ'ibot-tashviqot faoliyatini amalga oshirish bir necha marta tavsiya etilgan.

Shu bilan birga, 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan va 2008-yilda yangi tahriri tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonunni takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borildi. O'zbekiston Prezidentining tashabbusi asosida 2017-yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha 2018-yil 20-iyul kuni umumxalq muhokamasi uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joylashtirildi.

O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun loyihasida, jumladan, BMT Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining xalqaro standartlari va talablari, eng muhimi, asosiy falsafasini hisobga olish, shuningdek "nogiron" so'zi o'rniga "nogironligi bo'lgan shaxs" atamasidan foydalanishga e'tibor qaratildi.

So'ngra, 2020-yil 22-iyul kuni "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun loyihasi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, 2020-yil 11-sentyabr kuni Senat tomonidan ma'qullandi. Qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 15-oktyabr kuni imzolandi. Mazkur Qonunning 49-moddasiga muvofiq, qonun rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach, ya'ni 2021-yil 15-yanvar kuni kuchga kirdi.

Shu tariqa O'zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan dastavval, bu borada, alohida "Nogironligi bo'lgan shaxslar-

ning huquqlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishiga muvaffaq bo'lindi. O'z navbatida, Yurtboshimizning xalqaro tashabbusi doirasida, endilikda O'zbekiston Parlamenti Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qildi.

Shuningdek, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya ijrosi bilan o'zaro uyg'un holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-fevralda matbuotda e'lon qilingan **"Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori** bu borada ulkan ahamiyat kasb etganini e'tirof etish o'rinlidir.

Qarordan ko'zlangan maqsad:

**birinchidan**, inson huquqlari, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining kafolatlarini mustahkamlash;

**ikkinchidan**, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlamlari teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishlarini ta'minlashning samarali mexanizmlarini joriy etish;

**uchinchidan**, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotining barcha sohalarida ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda ijtimoiy adolat prinsipiga amal qilish, yordam va qo'llab-quvvatlashga muhtoj, birinchi navbatda, jismoniy imkoniyati cheklangan odamlarga to'laqonli hayot kechirishi uchun sharoit yaratish masalasi davlat va jamiyat e'tiborining diqqat markazida turadi.

### **Konvensiya – nogironligi bo'lgan shaxslarning Jahon Konstitutsiyasi**

Ma'lumki, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan va 2008-yil 3-mayda kuchga kirgan. BMTga a'zo 192 davlatdan, 2022-yil holatiga ko'ra, 186 tasi ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan.

**BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi XXI asrda qabul qilingan inson huquqlari to'g'risidagi birinchi shartnomadir.**

Konvensiyada nogironlarning huquqlari va asosiy erkinliklari, xususan, ularning yashash, fuqarolik, huquqiy himoyalash, ta'lim olish, salomatliklarini saqlash, boshqalar bilan teng ravishda mehnat qilish, siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotda bo'sh vaqtni o'tkazish, dam olish va sport bilan shug'ullanishda ishtirok etish, o'zlari va oilasi uchun yetarlicha turmush sharoitiga ega bo'lish va ijtimoiy yordam huquqlari e'tirof etilgan. Ushbu huquqlarni amalga oshirishning kafolatlari belgilangan.

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya 50 ta moddadan iborat bo'lib, dunyodagi nogironligi bo'lgan shaxslar holatini tahlil qilish asosida qabul qilingan. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining bergan ma'lumotlariga ko'ra, **dunyo aholisining 15 foizini nogironligi bo'lgan insonlar tashkil qiladi, bugungi kunda ularning soni 1 mlrdga yetgan, shundan 100 mlndan ortig'i nogironligi bo'lgan bolalardan iborat.**

Eng muhimi, Konvensiya dunyodagi nogironligi bo'lgan shaxslar holatini atroflicha tahlil qilish asosida qabul qilingan. Mazkur xalqaro-huquqiy hujjat insonlarning turli-tumanligi va qadr-qimmatini prinsiplarini o'zida mujassamlashtirgani ahamiyatlidir.

Konvensiyaning asosiy g'oyasi shundan iboratki, nogironligi bo'lgan shaxslar barcha inson huquqlari va erkinliklaridan kamsitishsiz foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Konvensiyaning maqsadi 1-moddada bayon etilgan hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning tenglik asosida barcha inson huquqlarini to'liq amalga oshirishlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ta'minlashdan iboratdir. U foydalanish imkoniyati, shaxsiy harakatlanish, sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik, abilitatsiya va reabilitatsiya, siyosiy hayotda ishtirok

etish, shuningdek tenglik va kamsitmaslik kabi bir qator muhim masalalarni qamrab oladi.

Konvensiyaning 4-moddasida nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash, rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha umumiy majburiyatlar belgilangan. Xususan, **Konvensiyada ishtirokchi-davlatlar quyidagi majburiyatlarni oladi:**

- nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini amalga oshirish uchun barcha zarur qonunchilik, ma'muriy va boshqa choralarni ko'rish;

- nogironlarga nisbatan kamsitish xususiyatiga ega mavjud qonunlar, qarorlar, urf-odatlarini o'zgartirish yoki bekor qilish;

- barcha strategiyalar va dasturlarda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish hamda rag'batlantirishni hisobga olish, Konvensiyaga to'g'ri kelmaydigan har qanday harakatlar yoki usullardan tiyilish;

- har qanday shaxs, tashkilot yoki xususiy korxona tomonidan nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishni bartaraf etish uchun zarur choralarni ko'rish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning aniq ehtiyojlari uchun iloji boricha kam moslashuvchanlik va xarajat talab qiladigan tovarlar, xizmatlar, jihozlar hamda universal dizayn obyektlarining tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalarini olib borish yoki rag'batlantirish, ularning mavjud bo'lishi va ulardan foydalanishga ko'maklashish, shuningdek standartlar va ko'rsatkich mo'ljallarini ishlab chiqishda universal dizayn g'oyasini ilgari surish;

- tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalarini olib borish yoki rag'batlantirish, shuningdek nogironlar uchun mos keladigan yangi texnologiyalar, xususan, arzon texnologiyalarga ustuvor ahamiyat bergan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, harakatchanlikni, qurilmalar va assistiv texnologiyalarni yengillashtiradigan vositalarning mavjud bo'lishi va foydalanilishiga ko'maklashish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarga harakatchanlik, qurilmalar va assistiv texnologiyalarni yengillashtiradigan vositalar, jumladan, yangi texnologiyalar hamda yordam ko'rsatishning boshqa shakllari, qo'shimcha xizmatlar va obyektlar to'g'risida mavjud axborotlarni taqdim etish;

- ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlar bilan kafo-latlangan yordam va xizmatlarni taqdim etishni takomillashti-rish uchun mutaxassislar va nogironlar bilan ish olib boradigan xodimni o'qitishni rag'batlantirish

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish-da ustuvor subyektlar sifatida nogironligi bo'lgan xotin-qizlar (6-modda) va nogironligi bo'lgan bolalar (7-modda) ajratib ko'rsatilgan.

Konvensiya qoidalari bajarilishini monitoring qiluvchi, ishtirokchi-davlatlarning ma'ruzalarini ko'rib chiqishga vako-latli hamda ushbu ma'ruzalar bo'yicha takliflar va umumiy tavsiyalar beruvchi organ – **BMTning Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitasi** (18 kishidan iborat) tashkil etilgan.

A'zo-davlatlar dastlabki milliy ma'ruzani Konvensiya ratifikatsiya qilinganidan so'ng 2 yil ichida, keyinchalik har 4 yilda bir marta taqdim etishlari belgilangan.

### **Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishning yuridik asoslari**

Mamlakatimizning nogironligi bo'lgan shaxslar huquqla-rini himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – nogironligi bo'lgan shaxslarga Konsti-tutsiyamizda nazarda tutilgan fuqarolik, iqtisodiy, siyosiy va boshqa huquq va erkinliklarni amalga oshirishda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari hamda prinsiplari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartno-malariga muvofiq boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarni ta'minlash hisoblanadi.

O'zbekistonda 1 mln yaqin nogironligi bo'lgan shaxs istiqomat qiladi. Shularning 100 mingdan ortig'i 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalardir. Ular ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash, tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya choralari bilan qamrab olingan.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi qarori bilan "Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi fuqarolarga nafaqa tayinlash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti" tasdiqlandi. Ushbu hujjatga asosan, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi fuqarolarga nafaqa tayinlash bo'yicha davlat xizmatlari 2021-yil 1-avgustdan boshlab ko'rsatib kelinmoqda.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-apreldagi qarori bilan Hukumat huzurida doimiy faoliyat yurituvchi **Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash** tashkil qilindi.

#### **Idoralararo kengashning asosiy vazifalari:**

- nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning sog'lig'ini tiklash, ularni rehabilitatsiya qilish, ijtimoiy himoya qilish va huquqlarini ta'minlashga doir davlat dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishi, ularni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, mehnat qilishi va bandligiga ko'maklashish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat va davlat hayotida to'la huquqli tarzda ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda ishtirok etishdan iborat.

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida himoya

qilish asosida qanday vaziyat bo'lishidan qat'i nazar insonni, shu jumladan, nogironligi borligi tufayli kamsitmaslik prinsipi yotadi. Bu borada nafaqat davlat tuzilmalari, balki fuqarolik jamiyati institutlari ham faollik ko'rsatayotgani juda muhim.

Bugungi kunda mamlakatimizda nogironlik sohasida 613 ga yaqin nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Adliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi 613 ta nodavlat notijorat tashkilotlari mavjud, biroq ular qatoriga NNO viloyat, shahar va tuman bo'linmalari ham kiradi<sup>1</sup>. Xususan, O'zbekiston nogironlar jamiyati, O'zbekiston nogironlar jamoat fondi, O'zbekiston Nogiron ishbilarmon ayollar milliy assotsiatsiyasi, Imkoniyati cheklangan yoshlar va bolalar markazi, O'zbekistondagi falaj nogiron bolalar va o'smirlarga yordam berish "Umr" jamoatchilik markazi, "Inklyuziv hayot" nogironlar jamoat birlashmasi, O'zbekiston Ko'zi ojizlar jamiyati, O'zbekiston karlar jamiyati kabi NNTlar shular jumlasidan. Ushbu nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari Konvensiyani ratifikatsiya qilishda faol ishtirok etdi.

Jumladan, O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida", "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida", "Aholi bandligi to'g'risida", "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida", "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida", "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunlar va O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston ratifikatsiya qilgan BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi nogironligi bo'lgan shaxslarning tengligi, huquqlari, ayniqsa,

---

<sup>1</sup> Инклюзия лиц с инвалидностью. Страновой обзор. Узбекистан. [Электрон ресурс]. – <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099415012202113860/pdf/P1569620fed8da09c0b06c09f8bbbe48eaf.pdf>



ayollar va bolalarning ta'lim olishi, salomatligini saqlashi, mehnat qilishi, o'zi va oilasi uchun yetarlicha turmush sharoitiga ega bo'lishining huquqiy kafolatlarini belgilovchi xalqaro-huquqiy hujjatdir.

Konvensiyani ratifikatsiya qilishda 3 ta manba: milliy qonunchilik, xorijiy yuridik amaliyot va ushbu Konvensiyaning o'ziga tayanildi. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveytsariya, Rossiya, Belarus, Ukraina, Ozarbayjon kabi davlatlar tajribasi chuqur o'rganildi.

Shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveytsariya kabi yetakchi xorijiy davlatlar Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan holda, tegishli milliy qonunlarini ham qabul qilgan. Bu qonunlarning barchasi mazmunan o'xshash bo'lib, Konvensiya talablari negizida ishlab chiqilgan. Xususan, GFRda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan bir qancha qonunlar mavjud. **Masalan, "Jamiyatda, ishda va kasbiy sohada nogironlarning huquqlarini ta'minlash to'g'risida"gi qonun** shular sirasiga kiradi.

**O'zbekistonning bu boradagi huquqiy amaliyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak**, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish jarayonida O'zbekiston Respublikasi tomonidan xalqaro-huquqiy hujjat dastlab milliy qonunchilikka implementatsiya qilinib, shundan so'ng ratifikatsiya qilingan.

Eng asosiysi, Konvensiyani ratifikatsiya qilish natijasida:

**birinchidan**, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimi xalqaro norma va standartlarga muvofiqlashadi;

**ikkinchidan**, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish bo'yicha xalqaro tashkilotlarning maqsadli resurslarini jalb qilish imkoni kengayadi;

**uchinchidan**, aholini ijtimoiy himoya qilishdagi mam-lakatimizning ijobiy xalqaro imidji yanada yaxshilanadi.

---

## **IKKINCHI BO'LIM.**

### **BMTNING NOGIRONLAR HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENSIYASI – MAZMUN-MOHİYATI VA ASOSIY QOIDALAR**

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning qabul qilinishidan avval nogironlik masalasi inson huquqlari bo'yicha boshqa shartnomalarda umumiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan, masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktlarda inson, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydigan, nogironlarni kamsitmaslik to'g'risidagi bandlar mavjud. Ushbu hujjatning 2-moddasida insonlarning irqi, tanasining rangi, jinsi, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi yoki boshqa holatlariga nisbatan hech qanday kamsitishsiz amalga oshirilishini kafolatlash majburiyati o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, Qiynoqlar hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiya, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Qiynoqlarga qarshi konvensiya, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi kon-

vensiya va boshqa shu kabi inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarda kamsitishdan himoya qilish qoidalari, jumladan, nogironligi bo'yicha kamsitilishdan himoya qilish zarurligi, shuningdek nogiron bolalarning to'liq va munosib hayotga bo'lgan huquqlari aniq e'tirof etilgan.

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya inson huquqlari to'g'risidagi shartnoma bo'lib, inson huquqlari va davlatlar tomonidan tegishli majburiyatlarni belgilovchi davlatlar o'rtasidagi xalqaro bitim hisoblanadi.

Konvensiya nogironlar huquqlari barcha boshqa insonlar ega bo'lgan huquqlar bilan bir xilligini tan oladi hamda nogironlar ushbu huquqlardan foydalanishlari kerakligini tasdiqlaydi. Bu o'z-o'zidan ahamiyatli, chunki nogironligi bo'lgan shaxslar, ko'pincha o'z huquqlaridan mahrum bo'ladilar yoki o'z huquqlariga ega ekanligini bilishmaydi. Shartnomada nogironlar ushbu huquqlardan kamsitishlarsiz va boshqalar bilan teng ravishda foydalanishi kerakligi mustahkamlangan.

Shartnoma nogironlarning huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish bo'yicha davlatlarning majburiyatlarini belgilaydi. Garchi nogironlar nogironligi bo'lmagan shaxslar bilan bir xil huquqlarga ega bo'lishiga qaramay, ba'zida davlatlar ushbu huquqlarning amalga oshirilishini ta'minlash uchun boshqa yoki qo'shimcha choralarni ko'rishlari shart. Konvensiya bunday majburiyatlarni yetarlicha batafsil bayon qiladi.

Shartnomada, shuningdek ushbu Konvensiyani amalga oshirish va monitoring qilish uchun zarur bo'lgan milliy va xalqaro institutlarni tashkil etish ko'zda tutilgan. Milliy darajada, bu, o'z navbatida, davlat markazlari va mexanizmlari hamda mustaqil amalga oshirish va monitoring qilish mexanizmlari bo'lishi mumkin. Shuningdek, xalqaro miqyosda ushbu Konvensiyani amalga oshirishda davlatlarga ko'maklashish maqsadida Nogironlarning huquqlari bo'yicha qo'mita va

ishtirokchi-davlatlarning konferentsiyasini tashkil qilish jarayonining har qanday jihatlarini ko'rib chiqishda yordam beradi.

Garchi yuridik jihatdan majburiy xarakterga ega bo'lmasada, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Nogironlarning huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya, Nogironlarga nisbatan Umumjahon harakat dasturi va Nogironlar uchun teng imkoniyatlarning standart qoidalari to'g'risidagi hujjatlar davlatlarning nogironlarni himoya qilish choralarini ko'rishda, shu jumladan, milliy qonunchilik va strategiyalar orqali qabul qilishdagi axloqiy va siyosiy majburiyatini anglatadi.

Umuman olganda, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani qabul qilish bo'yicha quyidagi sabablarni ko'rsatish mumkin, xususan:

- Konvensiya nogironlarning inson huquqlarini tasdiqlash hamda ularning jamiyatda teng huquqli a'zolar va huquqlarga ega subyektlar sifatida ishtirok etishini ta'minlash uchun zarur edi (nogironlar to'laqonli huquq egalari sifatida emas, balki passiv yordam oluvchilar sifatida qabul qilinganligi, yutuqlar ham, rivojlanish muammolarini hal qilish bilan bog'liq muammolar ham nogironlarning haqiqiy holatini hisobga olishni ta'minlamaganligi), shu bilan birga, nogironlarning o'z jamiyatlarida "ko'rinmas" bo'lib qolishgani va ularning chetlatilishi, o'z navbatida, ko'pincha inson huquqlari buzilishi xavfini oshiradi.

- Konvensiya nogironlar duch keladigan muammolarni yanada kengroq hal qilish va qonuniy kuchga ega hujjat asosida ularning huquqlarini yanada samarali himoya qilish hamda ilgari surish uchun zarur edi. 2001-yilda Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi (IHOKB) nogironlar huquqlari va inson huquqlarini himoya qilishning mavjud tizimi to'g'risida tadqiqot o'tkazdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mavjud vositalar va mexanizmlar doirasida nogironlarning huquqlarini hi-

moya qilish masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan, nogironlar uchun maxsus huquqiy himoya tizimi mavjud emas, bu esa, inson huquqlariga asoslangan yondashuv ilgari o'rnatilgan standartlarni almashtirish yoki aniqlashtirish uchun ma'lum tushunchalarni kuchaytirishni talab qiladi. Masalan, nogironlar jamiyatning boshqa a'zolari bilan bir qatorda bepul va majburiy ta'lim olish huquqi, ya'ni inklyuziv ta'lim huquqini anglatadi.

- Konvensiya nogironlar tashkilotlari, fuqarolik jamiyati va davlat tomonidan olib borilayotgan faol tashviqot strategiasining natijasi bo'ldi. Fuqarolik jamiyati, ayniqsa, nogironlar tashkilotlari, nogironlar huquqlari uchun harakatni qo'llab-quvvatlovchi xalqaro tashkilotlar va akademiyalar ushbu Konvensiyani qo'llab-quvvatlash va ilgari surish bo'yicha oldinda harakat qilganlar. Ularning harakatlari Konvensiyaga umumiy yondashuvni belgilab berdi, nogironlik sohasidagi har qanday ijobiy voqealar nafaqat davlatlarning, balki barcha tegishli tomonlarning ishtirokini ta'minlash uchun to'liq qamrab olinishi kerak.

Konvensiyaning maqsadi barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish, himoya qilish, to'liq va teng ravishda foydalanishini ta'minlash hamda ularning qadr-qimmatini hurmat qilishni targ'ib qilishdan iborat bo'lib, uning ba'zi unsurlarini yanada ko'proq o'rganish kerak bo'ladi, xususan:

- huquqlarni rag'batlantirish, himoya qilish va amalga oshirish: bu Konvensiya bo'yicha davlatlarning nogironlarning huquqlari to'g'risidagi xabardorligini oshirish, nogironlar huquqlarini tan oladigan qonunlar va siyosatni qabul qilish hamda ular buzilgan taqdirda qonuniy himoya choralari ko'rish va huquqlarni ta'minlash hamda axborot olish imkoniyatini oshirish;

- barcha inson huquqlaridan to'la va teng ravishda foydalanish: bu nogironlarning boshqalar kabi huquqlari borli-

gini va ular jamiyatda hamma bilan teng ravishda mazkur huquqlardan foydalanishi kerak;

- shaxsning qadr-qimmatini hurmat qilish: bu inson huquqlarining barcha jihatlariga asoslanadi, chunki inson huquqlarini hurmat qilish bizning insoniyligimizni belgilovchi eng muhim omildir. Inson huquqlarining buzilishi uning qadr-qimmatini buzishdir, xususan, butun dunyoda ko'plab nogironlarning taqdiri shunday.

Shunga asosan Konvensiya:

- nogironlarning huquqlarini tushuntiradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ko'plab nogironlar o'z huquqlaridan xabardor emaslar va bu huquqlar, ko'pincha e'tiborga olinmaydi. Konvensiya nogironlar boshqa shaxslar kabi bir xil huquqlarga ega va ular ushbu huquqlardan nogironligi bo'lmagan shaxslar bilan teng ravishda foydalana olishlari kerakligini tan oladi;

- ushbu huquqlarni hurmat qilish majburiyatini belgilaydi. Konvensiya huquqlarning mavjudligi to'g'risida da'vo qilishning o'zi yetarli emasligini va davlatlar (va boshqa tashkilotlar) ushbu huquqlarning hurmat qilinishini ta'minlash uchun ko'rishi kerak bo'lgan turli xil choralarning bir xil darajada muhimligini tan oladi;

- nogironlikni ijtimoiy hodisa sifatida tan oladi. Konvensiya nogironligi bo'lgan insonlarning jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni olib tashlanishi kerakligini tan oladi;

- nogironlarning huquqlarini tan olishdan tashqari, ushbu huquqlarning bajarilishi uchun kim javobgarligini, ular aynan nima va qachon (masalan, darhol yoki bosqichma-bosqich) bajarilishini belgilab beradi;

- kamsitmaslik va tenglikka oid ishonchli me'yorlar tizimidan iborat bo'lib, fuqarolik, madaniy, iqtisodiy, siyosiy yoki ijtimoiy huquqlardan qat'i nazar, barcha huquqlarga nisbatan qo'llaniladi;

– inson huquqlarining to‘liq doirasini qamrab oladi. U fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni birlashtiradi, bu esa, barcha inson huquqlarining o‘zaro bog‘liqligi va teng huquqliligini tasdiqlaydi. Konvensiyada nogironlarga nisbatan qo‘llaniladigan huquqlar sifatida har bir shaxsga berilgan inson huquqlarining mazmuni va qamrovi ochib berilgan;

– har tomonlama va qulay rivojlanishga yordam beradi. Ushbu Konvensiya ko‘pincha, inson huquqlari bo‘yicha shartnoma va rivojlanish vositasi deb nomlanadi. U inson huquqlari sohasidagi tendensiyaning davom ettirib, bu davlatlarning o‘z huquqlarini himoya qilish uchun ijobiy choralar ko‘rish zarurligini tan oladi hamda ushbu huquqlarni amalga oshirishda davlatlarga yordam berishda xalqaro hamjamiyatning rolini e‘tirof etadi. Rivojlanish haqiqatdan ham Konvensiyani to‘g‘ri amalga oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Masalan, ko‘plab qoidalar tovarlar va xizmatlarga oson kirishni talab qiladi, bu qisman samarali rivojlanish strategiyalari va siyosatlariga bog‘liq. Shuni ta’kidlash kerakki, rivojlanish nogironligi bo‘lgan shaxslarni qamrab olishi va ularga ta’sir etishi kerak, bunda ikki tomonlama yondashuv talab etiladi, jumladan, nogironlar uchun maxsus dasturlar, barcha loyihalar, dasturlar va rivojlanishning boshqa tadbirlarida ularning huquqlari;

– huquqlarning milliy va xalqaro monitoringini ta’minlaydi. Garchi bu qonunni amalga oshirish imkoniyati bilan bir xil bo‘lmasa-da, Konvensiyaning bajarilishi va monitoringini qo‘llab-quvvatlash uchun milliy va xalqaro mexanizmlarni yaratish hamda amalga oshirish usullaridan biridir.

Aksariyat a’zo-davlatlar yo foydalanish imkoniyati to‘g‘risidagi bevosita qoidalarni yoki foydalanish imkonini ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘rishni talab qiladigan qoidalarni qamrab oladigan nogironlik haqidagi qonunlar yoki qarorlarni qabul

qildilar. Ularning qariyb 92 foizi qonunlar yoki qarorlar shaklida qonunchilik tashabbuslarini qabul qilgan. Mintaqalar bo'yicha taqsimot shuni ko'rsatmoqdaki, Yevropada 97%, Shimoliy va Janubiy Amerikada 95%, Osiyoda 91%, Okeaniyada 86% va Afrikada 84%ga yaqin a'zo-davlatlar nogironlarga yo'naltirilgan qonunlar yoki qarorlarni qabul qilgan.



---

## **UCHINCHI BO‘LIM.**

### **NOGIRONLAR HUQUQLARINI TA‘MINLASH: MILLIY VA XALQARO YONDASHUVLARDAGI O‘ZARO MUSHTARAKLIK**

Bugungi kunda mamlakatimizda “Inson qadri uchun” g‘oyasi va joriy islohotlarning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson – jamiyat – davlat” degan yondashuv barcha sohalaridagi yangilanishlarning mazmun-mohiyatiga chuqur singib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 17-fevralda **“Nogironligi bo‘lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni** qabul qildi. Ushbu hujjat 2022-yil 28-yanvarda tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ijrosi doirasida ishlab chiqilgan.

Bunga qadar, Harakatlar strategiyasi doirasida, jumladan, Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 25-martdagi **“Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmon**, 2021-yil 27-noyabrda **“Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati faoliyati hamda bolalarga nogironlikni belgilash tizimini yanada takomillash-tirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror** qabul qilingan va ijroga yo‘naltirilgan.

## **Nogironlik muammolari bo'yicha Global sammit**

2022-yilning 16–17-fevral kunlari Nogironlik muammolari bo'yicha Global sammit bo'lib o'tdi. Ushbu xalqaro anjuman Norvegiya va Gana hukumatlari hamda Nogironlik muammolari bo'yicha xalqaro alyans tomonidan onlayn shaklda tashkil etildi.

Nogironlik muammolari bo'yicha Global sammitda imkoniyati cheklangan insonlar hayotida aniq va amaliy o'zgarishlar yuz berishiga xizmat qiladigan inklyuziv taraqqiyot talablarini tatbiq etish istiqbollari muhokama qilindi. Bunda **BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqildi.**

Barqaror rivojlanishning 17-maqsadiga erishish uchun sakkiz yildan ozroq vaqt qolmoqda. Shuning uchun, bu bora-da qo'lga kiritilgan natijalarga tayangan holda, ushbu maqsad doirasida belgilangan inklyuziv taraqqiyotni kengaytirish bo'yicha majburiyatlarni bajarish lozim.

BMT Bosh kotibi **Antoniu Guterriş** nogironligi bo'lgan shaxslarni himoya qilishning bir qator ustuvor yo'nalishlarini ilgari surdi. Xususan, Bosh kotibning fikricha, nogironligi bo'lgan shaxslar hamma joyda har qanday imkoniyatlardan teng foydalana olishiga sharoit yaratish uchun investitsiyalar zarur. Bu esa, katta miqdordagi moliyalashtirishni taqozo etadi.

Sammitni Norvegiya Bosh vaziri **Yonas Gar Styore** ochib berdi. U mazkur xalqaro anjuman butun dunyodagi imkoniyati cheklangan insonlar hayotini yaxshilash bo'yicha sa'y-harakatlarimizni faollashtirishga yo'l ochishini ta'kidladi. Zero, bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 15 foizini nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil etmoqda. Koronavirus pandemiyasi ana shu insonlar huquqlarini ta'minlash borasidagi notenglikni kuchaytirmoqda.

Gana Respublikasi Prezidenti **Nana Akufo-Addo** bunday notenglik pandemiya tufayli mamlakatlar ichkarisida ayniqsa

kuchayganiga e'tiborni qaratdi. Bu vaziyat, xususan, nogironligi bo'lgan shaxslarga koronavirus bilan bog'liq holatlarda tibbiy, ijtimoiy va moliyaviy xizmatlar yetarlicha ko'rsatilmayotgani misolida ko'zga tashlanmoqda.

Xalqaro anjumanda ta'kidlanganidek, BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi ijrosini ta'minlash va uning bajarilishini muntazam monitoring qilib borish juda muhim. Shundagina imkoniyati cheklangan insonlarning huquqlarini to'liq ta'minlash masalasi insoniyatning barqaror va farovon jamiyat barpo etish borasidagi global faoliyatining diqqat markazida turishiga erishamiz.

Global sammitda 20 nafar oliy darajadagi spiker – Prezidentlar, Bosh vazirlar, xalqaro tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi va so'zga chiqdi. Shuningdek, sammitda BMT va uning mintaqalardagi muassasalari, nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari, davlat boshliqlari va hukumat rahbarlari, aloqador vazirlik va tashkilotlar mutasaddilari, xususiy sektor vakillari va fuqarolik jamiyati faollari – jami 7 mingdan ziyod vakil ishtirok etdi.

Xalqaro anjumanga O'zbekiston ham taklif etildi. Muhi- mi, mamlakatimiz vakiliga O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari haqida axborot taq- dim etish imkoniyati yaratildi.

Shu ma'noda, **birinchidan**, xalqaro hamjamiyatning bun- day ijobiy munosabati, bir tomondan, O'zbekistonning mil- liy taraqqiyot yo'lidan og'ishmay, dadil odimlayotganini tas- diqlaydi.

**Ikkinchidan**, bu jahoniy e'tibor mamlakatimizning xalq- aro maydonda o'rni va nufuzi tobora mustahkamlanib borayot- ganiga yana bir yorqin dalil hisoblanadi.

**Uchinchidan**, bularning barchasi – nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va manfaatlarini ta'minlash borasida O'zbekiston Prezidenti olib borayotgan siyosat bilan xalqaro

hamjamiyatning global sa'y-harakatlari o'zaro uyg'un hamda mushtarak ekanini amalda namoyon etmoqda.

**Nogironlik muammolari bo'yicha Global sammitda** alohida ta'kidlanganidek, koronavirus pandemiyasidan keyingi davrda nogironlik muammolarini hal etishda oldingi maqbul natijalarni tiklash va yanada ko'proq samaralarni qo'lga kiritish zarur. Bunda davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari, turli doiralardagi sheriklar bilan yaqin hamkorlikni kuchaytirish katta ahamiyat kasb etadi.

### **Taraqqiyot strategiyasi va nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan **2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida** ham nogironligi bo'lgan shaxslar uchun bir qator qo'shimcha kafolatlar belgilandi. Jumladan, bundan buyon nogironlik idoralararo elektron ma'lumotlar almashinuvi asosida, fuqarolarning ishtirokisiz belgilanadi.

Shu ma'noda, Strategiya mamlakatda aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchilligini ta'minlash va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

**Taraqqiyot strategiyasida** belgilangan muhim vazifa – “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi qonuni-ga o'zgartirishlar kiritish bilan bevosita bog'liq. Chunki bunda davlatimiz rahbarining bolalikdan nogironligi bo'lgan bolalarga 18 yoshgacha qaralgan davrni pensiya tayinlashda ish stajiga qo'shib hisoblash zarurligi haqidagi topshirig'i o'z ijobatini topadi.

2022-yildan e'tiboran, **“2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”-**

**gi Farmonning** 14-bandiga binoan, keksa va nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimi soddalashtirildi hamda ularga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali qo'shimcha qulayliklar yaratildi. Shuningdek, mazkur hujjatning 15-bandiga ko'ra, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish tartibi joriy etildi.

**Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi inson qadrini ta'minlashga qaratilgan 100 ta maqsadni qamragan.** Shu maqsadlarning aksariyatida nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari va manfaatlariga daxldor ko'plab vazifalar belgilangan. Xususan, keksa va nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, ularga qulayliklar yaratish, aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash darajasini 60 foizga yetkazish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni bilan aholini ijtimoiy himoya qilishning yo'nalishlari ko'rsatildi, jumladan:

- ijtimoiy yordamga muhtoj va ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan oilalar va shaxslarni ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish;

- majburiy ijtimoiy kafolatlardan, shu jumladan, ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish, ushbu jarayonga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish;

- nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o'tish hamda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash;

- ijtimoiy xizmatlarni aholiga bevosita mahalla darajasida ko'rsatish amaliyotini joriy etish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish.

Shuningdek, Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etilib, uning hisobidan vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, baxtsiz hodisa, ish o'rinlarining qisqarishi va boshqa holatlarda daromadsiz qolishdan himoya qilish, barcha yuridik shaxslarda ayollarga Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanishi belgilandi.

### **Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish istiqbollari**

Taraqqiyot strategiyasining 66-maqsadi: **“Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish” deb nomlangan.** Ushbu maqsad doirasida:

**birinchidan**, nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash;

**ikkinchidan**, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish;

**uchinchidan**, tibbiy-mehnat ekspertizasi va nogironlikni belgilashning shaffof, zamonaviy uslub va mezonlarini joriy etish, nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish darajasi va sifatini oshirish;

**to'rtinchidan**, nogironligi bo'lgan shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o'zaro aloqasini kuchaytirish, ularning qulay muhitda bo'lishi, shahar yo'lovchi transporti, ijtimoiy va boshqa infratuzilma obyektlaridan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratish;

**beshinchidan**, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtiroki-

ni ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish;

**oltinchidan**, nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeli-ga bosqichma-bosqich o'tish kabi g'oyat muhim vazifalar kun tartibiga qo'yilgan. Ayni vaqtda ushbu chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Bu haqda so'z borganda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yaqinda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'ri-sida"gi farmonini imzolaganini yana bir bor ta'kidlash lozim.

Ushbu Farmon nogironligi bo'lgan shaxslar, ayniqsa, doimiy parvarishga muhtoj bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ijtimoiy yordamning zamonaviy mexanizmlarini amalga oshirishda yangi yondashuvlarni joriy etishga qaratilgani bilan nihoyatda muhimdir.

Bundan tashqari, Taraqqiyot strategiyasi doirasida Vazirlar Mahkamasi 2022-yil 8-fevralda **"Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati tashkiliy tuzilmasini va faoliyatini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"-gi qarorni** qabul qildi. Hukumat qaroriga asosan nogironlikni olish tartibi o'zgartirildi. Ya'ni, endilikda fuqarolarni ko'rikdan o'tkazish ularni tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarga ko'rikka yuborish orqali amalga oshiriladi.

Ko'rikka, shuningdek statsionardan berilgan kasallik tarixini, ambulator kartadan ko'chirmalarni va bemorni ko'rikka yuborish uchun asos bo'lgan boshqa hujjatlarni o'rganish ham kiradi. Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari majlisida ko'rik to'liq tarkibda va hujjatlar qabul qilib olingan kundan boshlab 10 kun ichida o'tkaziladi. Nogironlik belgilangan taqdirda, hujjatlar TIEK tomonidan qabul qilib olingan sana nogironlikning boshlanishi hisoblanadi.

---

---

## **TO'RTINCHI BO'LIM.**

### **NOGIRONLAR HUQUQLARI BO'YICHA QO'MITAGA MA'RUZALARNI TAQDIM QILISH: MAMLAKATLAR MA'RUZALARI VA MUQOBIL MA'RUZALAR**

#### **Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita**

Ma'ruzalarni muhokama qilishdan oldin, davlatlar va boshqa manfaatdor tomonlarning hisobotlarini qabul qiladigan hamda ko'rib chiqadigan Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitaning mohiyati va rolini tushunish muhimdir. 34-moddaga muvofiq ishtirokchi-davlatlarning davriy ma'ruzalarini olish va ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita tuziladi.

Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning ishtirokchi-davlatlar tomonidan bajarilishini nazorat qiluvchi mustaqil ekspertlar organi hisoblanib, shaxsiy salohiyatga ega 18 ta ekspertdan iborat. Ular ishtirokchi-davlatlar konferentsiyasida Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari tomonidan saylanadi va ma'lum xususiyatlarga ega, jumladan:

- yuqori axloqiy fazilatlar;
- tan olingan vakolat va Konvensiya qamrab olgan sohadagi tajriba.

Ushbu ekspertlarni saylashda ishtirokchi-davlatlar 34-moddada aniq ko'rsatilgan bir qator masalalarga e'tibor berishlari kerak:



- adolatli geografik taqsimot;
- sivilizatsiyaning turli shakllarini ifodalash;
- asosiy huquqiy tizimlarning vakili;
- muvozanatli gender vakilligi;
- nogiron mutaxassislarning ishtiroki.

Ushbu oxirgi mezon – nogiron ekspertlarning ishtiroki Konvensiyada yangilik bo‘lib, unda nogironlar, ko‘pincha ularning manfaatlariga ta’sir ko‘rsatadigan qarorlarni qabul qilish jarayonidan chetlatilganligi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, ekspertlarni tayinlashda ishtirokchi-davlatlarga 4-moddaning 3-bandidagi qoidalarini e’tiborga olish tavsiya etiladi. 4-moddaning 3-bandida davlatlardan nogironlar, shu jumladan, nogiron bolalar bilan yaqindan maslahatlashish va ularning vakillik tashkilotlarini ularga tegishli bo‘lgan qarorlarini (xususan, qonunchilik va strategiyalar to‘g‘risidagi qarorlar) qabul qilish talab etiladi. Bu nomzodlik jarayoni hukumatning tashvishi bo‘lmasligi kerakligini va jamiyatdagi boshqa guruhlar rol o‘ynashi hamda Qo‘mitaning a’zolik tarkibiga qiziqish bildirishidan dalolat beradi.

Qo‘mita ekspertlari to‘rt yillik muddatga saylanadi va faqat bir marta qayta saylanish huquqiga ega.

Qo‘mitaning asosiy vazifasi – Konvensiyaga har bir ishtirokchi-davlatdan batafsil hisobotlarni olish.

Bundan tashqari, Qo‘mita quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

- ishtirokchi-davlatlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda va hamkorlikda jamiyatning faol hayotiga jismoniy rivojlanishida qiyinchiliklar bo‘lgan, jumladan, nogironligi yoki aqliy nuqsonlari bo‘lgan odamlarning haqiqiy qo‘shilishi jarayoniga ko‘maklashish;

- shikoyatlarni qabul qilish va ushbu shikoyatlar bo‘yicha tavsiyalar berish;

- nogironligi bo‘lgan barcha shaxslarning inson huquqlarini himoya qiladi va bu huquqlarga rioya qilinishiga erishish;

- Konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar berish;

- agar u Konvensiyaning jiddiy yoki muntazam ravishda buzilishini ko'rsatadigan ishonchli ma'lumotga ega bo'lsa, mamlakatda tekshiruvlar o'tkazish.

Shuningdek, Qo'mita o'zining ma'muriy muammolarini hal qilish vakolatiga ham ega. Xususan:

- u o'z raisini saylaydi, ish usullari hamda tartib qoidalarini belgilaydi va hokazo;

- u ushbu Konvensiyaning bajarilishi va monitoringi bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish yuzasidan fuqarolik jamiyati, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va Birlashgan Millatlar Tashkilotining agentliklari vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazadi;

- u shartnomaviy organlar tizimini mustahkamlash va ish uslublarini uyg'unlashtirish maqsadida boshqa shartnoma organlarining ish uslublarini muvofiqlashtiradi.

**Davlatlarning ma'ruza taqdim etish talablari Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 35-moddasi 1-bandida** "Har bir ishtirokchi-davlat Qo'mitaga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi orqali ushbu Konvensiya bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun ko'rilgan choralar va bu borada tegishli ishtirokchi-davlat uchun ushbu Konvensiya kuchga kirgandan keyin ikki yil davomida erishilgan yutuqlar to'g'risida keng qamrovli ma'ruzalarni taqdim etadi", deb mustahkamlangan.

Dastlabki ma'ruzadan so'ng, ishtirokchi-davlat keyingi ma'ruzalarni kamida to'rt yilda, shuningdek Qo'mita talabiga ko'ra taqdim qilishi kerak. Keyingi ma'ruza ko'pincha davriy ma'ruza deb nomlanadi. Qo'mita har qanday vaqtda to'rt yillik davrdan tashqari uning e'tiborini talab qiladigan muayyan holatlarga javob berish uchun hisobot so'rash imkoniga ega bo'ldi.

Ma'ruzani taqdim etish davri inson huquqlari bo'yicha har qanday shartnomada qabul qilingan jarayonga o'xshaydi. Bu davriy ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. U bir martalik hodisa hisoblanmaydi va u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan jarayondir:

- hukumat, fuqarolik jamiyati va inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar kabi boshqa tashkilotlar doirasidagi maslahat jarayoni asosida ma'ruza tayyorlash va uni taqdim etish;
- qator savollarga javoblarni tayyorlash va yuborish;
- Qo'mita a'zolari bilan uchrashish va ular bilan Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha konstruktiv suhbat o'tkazish;
- Qo'mitaning fikrlari va tavsiyalarini kuzatish.

Boshqa shartnomalar bilan solishtirganda asosiy farq shundaki, ishtirokchi-davlatlarga mazkur Konvensiyaning 4-moddasi 3-bandiga muvofiq ishtirokchi-davlatlarning ushbu Konvensiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan qonunchilik va strategiyani ishlab chiqish va qo'llashda hamda nogironlarga taalluqli masalalar bo'yicha qaror (ayniqsa, qonunchilik va strategiyalar to'g'risidagi qarorlar bo'yicha) qabul qilishning boshqa jarayonlari doirasida nogironlar, jumladan, nogiron bolalar bilan yaqindan maslahatlashishlari va ularning vakillik organlari orqali ularni faol jalb qilishlari kerakligini hisobga olgan holda, ma'ruzani tayyorlash uchun ochiq va shaffof jarayonni ko'rib chiqishlari tavsiya etiladi. Tabiiyki, davlatlar uchun talab faqat ma'ruzani tayyorlashda nogironlarning ishtirokiga yetarlicha e'tibor berishdir. Shunga ko'ra, bu ma'ruzani tayyorlash jarayoni hukumatlarning e'tiboridan chetda qolmasligi kerak, aksincha jamiyatning boshqa sohalarida ham katta qiziqish uyg'otishi kerak.

Ma'ruzalarni tayyorlashda davlatlar amal qilishi kerak bo'l-gan quyidagi bosqichlar mavjud, ular:

- ma'ruza bo'yicha guruhni aniqlash. Odatda Konvensiyaning 33-moddasiga muvofiq tashkil etilgan nazorat qiluvchi

organ yoki muvofiqlashtirish mexanizmi Qo'mitaga ma'ruza tayyorlashda ishtirok etadi. Tayyorgarlikning dastlabki bosqichida nazorat qiluvchi organ va/yoki muvofiqlashtirish mexanizmi Konvensiyani amalga oshirishda ishtirok etayotgan vazirliklar va idoralarni belgilashi kerak;

- asosiy muammolarni dastlabki ko'rib chiqish. Hozirgi vaqtda ma'ruza guruhi ma'ruzaga tegishli bo'lgan muammolarni aniqlash uchun Konvensiyani, shuningdek qonunlar, ko'rsatmalar va har qanday tadqiqotlar kabi hujjatlarni o'rganishi kerak;

- huquqiy tahlil va ma'lumotlarni yig'ish. Ushbu bosqichda qonun loyihalari, ko'rsatmalar va strategiyalarni Konvensiyaga qay darajada muvofiq kelishini aniqlash uchun qayta ko'rib chiqish kerak. Bundan tashqari, huquqiy tahlilni nogironlarning hozirgi holatini aks ettiruvchi raqamlar va faktlar bilan belgilash uchun tadqiqotlar, so'rovlar, statistika va boshqa materiallar to'planishi kerak;

- ma'ruza loyihasini tahlil qilish va tayyorlash. Huquqiy tahlil va to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, dastlabki loyiha tayyorlanishi mumkin. To'plangan ma'lumotlar nafaqat takrorlanishi, balki ularning amalga oshirilishini belgilash va muammolarni aniqlash uchun Konvensiya qoidalariga nisbatan tahlil qilinishi kerak;

- hukumat bilan maslahatlashish va ma'ruzani yakunlash. Ma'ruza loyihasi hukumatning barcha tegishli vakillarining nuqtai nazarini aks ettirishi uchun ma'ruza guruhining a'zolariga kengroq yetkazilishi kerak. Hukumat, shuningdek mazkur Konvensiyaning 33-moddasiga muvofiq nogironlarning Konvensiya bajarilishini kuzatishda ishtirok etishini talab qiladigan loyihani fuqarolik jamiyatiga tarqatish yo'llarini ko'rib chiqishi kerak.

## **Muqobil ma'ruzalar**

NNTlar tomonidan taqdim etilgan mustaqil ma'lumotlar "soya" yoki "muqobil" ma'ruza (BMT atamasi) deb nomlanadi. Hozirgi vaqtda muqobil ma'ruzalar davlat ma'ruzalari tizimiga qo'shimcha tarzda taqdim etilgan qimmatli ma'lumot hisoblanadi.

Inson huquqlari bo'yicha shartnomalar, birinchi navbatda, milliy ma'ruza tizimi orqali amalga oshirilganligi sababli, nodavlat notijorat tashkilotlari hukumatlarni o'z fuqarolari va xalqaro hamjamiyat oldida hisobdorlikka tortish uchun ma'ruza taqdim etish mexanizmini tushunishi va undan foydalanishi muhim ahamiyatga ega.

BMTning shartnomaviy organlariga taqdim etiladigan muqobil ma'ruzada ma'lumotning shakli qanchalik samarali va aniq bo'lsa, ushbu ma'lumotlarning BMT qo'mitalari ekspertlari uchun foydali bo'lishi ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, muqobil ma'ruzalar faqat ishchi tillardan birida taqdim etilgan taqdidragina ko'rib chiqiladi.

Umuman olganda, nodavlat notijorat tashkilotlarining inson huquqlari bo'yicha ma'lumotlari milliy ma'ruzada keltirilgan ma'lumotlardan ko'ra aniqroq hisoblanadi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining muqobil ma'ruzalari ishtirokchidavlat bilan konstruktiv muloqotga kirish sifatida BMT Qo'mitasiga zarur qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etadi.

Inson huquqlari sohasida muqobil ma'ruza berish jaryonining asosiy maqsadi ma'ruzasi ko'rib chiqilayotgan mamlakatda inson huquqlariga rioya etilishini ta'minlashdan iborat.

Muqobil ma'ruza boshqa davlatlarni ma'ruza taqdim etuvchining mamlakatidagi vaziyat haqida xabardor qiladi. Ular, o'z navbatida, ma'ruzada keltirilgan ma'lumotlar asosi-

da tavsiyalar ishlab chiqadi. Muqobil ma'ruza Qo'mita a'zolariga ishtirokchi-davlatdagi vaziyatni yaxshilash bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishda yordam beradi.

Tavsiyalar tushunarli ifodalangan va iloji boricha aniq bo'lishi hamda mazkur tavsiyalarni asosiy matnda, alohida ajratib ko'rsatish kerak.

Muqobil ma'ruzani quyidagi elementlar asosida tayyorlash lozim:

**1. Qisqacha annotatsiya** – muqobil ma'ruzaning eng muhim qismi hisoblanadi. Unda inson huquqlarining eng muhim buzilishlari va vaziyatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar keltiriladi.

Fuqarolik jamiyati muqobil ma'ruzasidagi annotatsiya va tavsiyalar shartnomaviy organlar a'zolari uchun asosiy axborot manbai hisoblanadi. Bu, ehtimol, Qo'mita a'zolarining ko'pchiligi tomonidan o'qiladigan ma'ruzaning yagona qismi bo'ladi. Agar tavsiyalar asosli tadqiqot faktlari va mamlakatdagi inson huquqlari buzilishi haqidagi ma'lumotlarga asoslangan hamda aniq tarzda taqdim etilsa, BMTning shartnomaviy organi (Qo'mita) ularni o'zining Yakuniy mulohazalarida aks ettirishi mumkin. Shuning uchun qat'iy va aniq tavsiyalar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratish lozim.

**2. Kirish** – ma'ruzaning ushbu qismida, uni tayyorlash bilan shug'ullanadigan tashkilotlarni qisqacha tanishtirish, tadqiqotni o'tkazish usullari (ishxonada va dala sharoitidagi) haqida gapirish mumkin.

**3. Asosiy qism** – ma'ruzaning asosiy qismida ma'ruza yozilayotgan inson huquqlari to'g'risidagi shartnoma moddalari xronologiyasiga rioya qilish tavsiya etiladi. Bu o'quvchiga qaysi shartnoma huquqlari buzilganligini tushunish imkonini beradi hamda shartnomaviy organlar a'zolariga ma'ruza tuzilishiga rioya qilish imkonini beradi. Agar muqobil ma'ruzadagi ma'lumotlar davlat tomonidan taqdim etilgan milliy ma'ru-

zaning ma'lum bir jihatlariga zid bo'lsa yoki uni to'ldiradigan bo'lsa, ushbu holatda milliy ma'ruzaning tegishli qismiga havola berish lozim.

Agar davlat o'z ma'ruzasiga aniq bir masalani kiritmagan bo'lsa, fuqarolik jamiyati o'zining muqobil ma'ruzasida mazkur masala nima sababdan hal qilinishi lozimligini tushuntirishi kerak. Ushbu va boshqa masalalar bo'yicha keyinchalik qo'shimcha ma'lumot olish uchun shartnomaviy organ ishtirokchi-davlatga berishi mumkin bo'lgan aniq savollar berilgan bo'lishi kerak.

Muqobil ma'ruzada Davlat tomonidan yaxshilangan jihatlarni ham eslatib o'tish mumkin. Fuqarolik jamiyati nafaqat muhim masalalarni yoritibgina qolmay, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan yaxshilanishlarni mamnuniyat bilan e'tirof etishi hukumat va shartnomaviy organ o'rtasida yanada ijobiy muhokamani yuzaga keltiradi.

**4. Manbalar** – muqobil ma'ruzada foydalanilgan barcha manbalar aniq belgilanishi kerak. Har bir manba bo'yicha havolalar sahifaning oxirida yoki har bir bobning yoki butun hujjatning oxirida ko'rsatilishi lozim.

Konvensiya talabiga ko'ra, ishtirokchi-davlatlar nogironligi bo'lgan shaxslar imkoniyatini oshirish bo'yicha zarur choralarni ko'rishi va bu haqda dastavval 2 yil, so'ngra 4 yilda kamida 1 marta BMTning Konvensiya bo'yicha qo'mitasiga keng qamrovli ma'ruza taqdim etishi kerak.

Shuni aytib o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasi BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining a'zosi hisoblanadi. Shu ma'noda, mamlakatimiz Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq etish bo'yicha Milliy harakatlar rejasini tasdiqlashni zimmasiga oladi. Mamlakatimizning BMTning tegishli Qo'mitasiga Konvensiyaning bajarilishiga oid dastlabki ma'ruzasi 2023-yil 28-iyulga qadar taqdim etilishi ko'zda tutilgan.





INSON HUQUQLARI BO'YICHA  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

## **NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR HUQUQLARI**

Nashr uchun mas'ul  
Muharrir  
Texnik muharrir  
Kompyuterda  
sahifalovchi

M. Tillaboyev  
L. Ruzikulova  
M. Palnova  
A. Jumaniyazov

Chop etishga 2023-yil 30-aprelda ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108  $\frac{1}{32}$ . «PT Serif» garniturasida  
offset usulda bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 4,3. Nashr tabog'i 1,4. Adadi 100 nusxa.  
Buyurtma № 6.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazida  
chop etildi. 100029, Toshkent, Islom Karimov ko'chasi, 15.